

TARJIMADA SO‘Z TANLASH VA MA’NO KO‘CHISHI HODISASI

RASULOVA KAMOLA

Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrası doktoranti, TDSHU

Annotatsiya Ma’no ko‘chishi ya’ni metaforalarning asosida o‘xshatish, borliqdagi narsa va xodisalarning xususiyatlarini aniqlash uchun boshqa bir o‘xshashliklarni o‘zlashtirish mavjuddir. Turkiya turkchasida tabiatdagi hayvonlar, tabiatda mavjud bo‘lgan narsa va xodisalarning nomlari ular bilan aloqador sifatlar eng avvalo bir qancha ma’no ko‘chishidan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: metafora, tarjimada so‘z tanlash, ma’no ko‘chishi hodisasi, o‘xshatish, o‘xshashliklarni o‘zlashtirish.

Ma’no ko‘chishining har bir tilga oid eng tarqalgan turi metafora (*deyim aktarması* yoki *iğretilme*)dir.

Metafora – (yunon. *Metaphora*)¹ “ko‘chirish” o‘xshashli ko‘chimdir. Ushbu atama haqida eng avval (Miloddan avvalgi IV asr) Aristotel o‘zining “Poetika” asarida misol keltirgan. Asrimizning o‘rtalariga kelib mashhur tilshunos **Kainz** “Til metaforik asosga tayanadi. Har bir til ozmi ko‘pmi metaforaning bir lug‘at boyligidir” deb ta’kidlagan. Bugungi kungacha bir qancha tilshunoslar bu mavzuda ko‘pgina mustaqil izlanishlar olib borishgan².

Metafora nemis tilida *metaphor*, ingliz va fransuz tillarida *metaphore*, hozirgi turk tilshunosligida *deyim aktarımı* deb ataladi. Undan tashqari, turk tilshunosligida ushbu atamaga nisbatan *metafor*, *iğretileme* yoki *istiare* atamalari ham qo‘llaniladi. *İstiare* atamasi dastlab usmonli turk tilida qo‘llanilgan. Oralarida uzoq yoki yaqin munosabat bo‘lgan ikki narsa orasida bir o‘xshatish munosabati o‘rnatgan holda

¹ Бу атама Юнон тилида “кўчиш” маъносини англатади. Турк тилшунослигида узоқ вақт мобайнида (Усмонли даври) “istiare” атамаси қўлланилган.

² Хозирга қадар Меиер (1963), Халей (1980) каби бир қанча тилшуносларнинг китобларида маъно кўчиши ҳақида ёзиб қолдирганлар. Туркча нашр этилган китоблар: Aksan, 1971: 123-130, 1982: 185-189, 1993: 126-143.

ulardan birining nomini unga o'xshash boshqa narsaning nomi bilan ifodalash hodisasiga metafora (*deyim aktarimi, istiare*) deyiladi.

Masalan:

Shu karshimizdagi mahsher kudursa, childirsa (Shu ro'paramizdagi mahshar qutursa, hayqirsa).

Ushbu gapdagi *mahsher* (mahshar) so'zi "olomon, ko'pchilik" ma'nosiga ega. Yoki:

Haydi, aslanim, goster kendini (Qani, arslonim, ko'rsat o'zingni)

Jumlasidagi *aslan* (arslon) so'zi "*jasur, pahlavon yigit*" ma'nosini ifodalab kelgan. Bir so'z san'ati sifatida ushbu ko'chimning adabiyotshunoslikdagi muqobili *istiare(istiora)*dir.³

Ayrim turk turkularida ham metaforalarni uchratishimiz mumkin. Misol uchun, bir yoshgina qizga nisbatan *nihol kabi nozik* (fidan gibi) o'xshatishlari metafora bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Bunga xalq turkularidan birini misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

"Ipek buruk buyunmush Niksar'in fidanlari"

"Yaproq" so'zini oladigan bo'lsak, turkiya turkchasida daraxt va o'simliklarni yaproqlariga nisbatan qo'llaniladigan ushbu so'z daftar va kitob varaqlariga nisbatan ham qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi Turkiya turkchasida ma'no ko'chishining bir qancha turlarini uchratishimiz mumkin. Masalan:

A) Insondan tabiatga ma'no ko'chishi (Inсандan Doğaya Aktarma)

Agar boshqa tillarga oid bo'lgan lug'atlarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak inson tana a'zolari nomlari tabiatdagi narsa va hodisalarga o'zlashib yangidan yangi ma'no hosil qilganligini ko'ramiz. Turkiya Turkchasida inson tana a'zolari, ayrim libos qismlari tabiatdagi narsa va hodisalarni anglatgani bois tabiatga o'zlashganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan:

³ Хамидов Х.Х., Риҳсиева Г., Турк тили. Ўқув қўлланма. – Т., 2013, – 39 б .

Bosh (baş), ko‘z (göz), quloq (kulak), og‘iz (ağız), bo‘yin (boyun), qo‘l (el), tirsak (dirsek), oyoq (ayak), barmoq (parmak), tirnoq (tirmak) ... va x.zolar kabi *yoqa (yaka), etak (etek), pochka (paça)* kabilar ham borliqdagi narsa va xodisalarni aniqlashda qo‘llanilmoqda. Eng keng ishlatiladigan soha sifatida ko‘pma‘nolilikga oid bo‘lgan inson tana a‘zolari orasida og‘iz (ağız) so‘ziga qaraydigan bo‘lsak uning qay darajada ko‘p o‘xshash ma‘nolarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan: *G‘or og‘zi (mağara ağız), yo‘l og‘zi (yol ağız)..*

Yoki bo‘lmasa “*qo‘l*”(el) so‘zini oladigan bo‘lsak “insonning qo‘li” (insanin eli), “eshikning qo‘li” (kapının eli). Bukabi misollarni juda ham ko‘p keltirishimiz mumkin.

Libos bilan aloqador metaforalarga misol tariqasida “*yoqa*” (*yaka*) so‘zini oladigan bo‘lsak bunga *shahar yoqasi (şehrin yakası), ko‘l yoqasi(gölün yakası), “etak”(etek)* so‘zini oladigan bo‘lsak *tog‘ etagi (dağ eteği), ...* kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

B) Tabiatdan insonga ma‘no ko‘chishi (Doğadan İnsana Aktarma)

Har bir tilda keng tarqalgan metaforaning yana bir turi tabiatdan insonga ma‘no ko‘chishidir.

Biroz avval aniqlaganimiz kabi ma‘no ko‘chishi ya‘ni metaforalarning asosida o‘xshatish, borliqdagi narsa va xodisalarning xususiyatlarini aniqlash uchun boshqa bir o‘xshashliklarni o‘zlashtirish mavjuddir. Turkiya turkchasida tabiatdagi hayvonlar, tabiatda mavjud bo‘lgan narsa va xodisalarning nomlari ular bilan aloqador sifatlar eng avvalo bir qancha ma‘no ko‘chishidan foydalanilishini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur metafora turi tabiatdagi narsa va xodisalarning nomlari va unga oid sifatlarni insonlarga qo‘llanilishi uchun paydo bo‘ladi.

Masalan:

| | | |
|-------------|----------|----------------|
| 1) Arslon | 2) Ayyor | 3) Qattiq |
| Bo‘ri | Qovoq | Yumshoq |
| Kuchuk (it) | Qo‘pol | Yupqa (Ozg‘in) |

| | | |
|--------|----------|--------|
| Eshak | O'tin | Suyuq |
| Tulki | Zaif | Shirin |
| Maymun | Yaramas | Og'ir |
| Ilon | Pilik | Nozik |
| Xo'kiz | Jirkanch | Yirtiq |

Qattiq inson (sert adam), nozik ayol (hafif kadın), ozg'in odam (ince bir adam), shiringina bolakay! (ne tatlı çocuk!).

S) Tabiatdagi narsa va hodisalar orasida ma'noning ko'chishi(Doğadaki Nesnelər Arasında Aktarma)

Tabiatdan insonga ma'no ko'chishi kabi, tabiatda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar orasida ham o'xshashliklarga duch kelamiz. Bular orasida hayvonlardan o'simliklarga, hayvonlardan hayvonlarga ma'no ko'chishini ko'rishimiz mumkin. Tabiatdagi o'simlik va hayvonlar nomlarini boshqa bir jasmlar nomlariga ko'chirish turkchada keng tarqalgan. Misol tariqasida ba'zi o'simliklarni tuzilish jihatidan o'xshashligi hamda ba'zi hayvonlarga nisbatan quyidagi nomlarni qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin:

Masalan:

1) Hayvondan o'simlikka ma'no ko'chishi:

Kuşburnu
 Horozibiği
 Atkuyruğu
 Aslanağzı
 Öküzdili
 Tekesakalı

2) Jismlardan o'simliklarga ma'noning ko'chishi:

Kartopu
 Küpeçiçeği
 Yıldızçiçeği

Yüksükotu

Kandilotu

Patlıcançiçeği

3) *Hayvondan hayvonga ma'noning ko'chishi:*

Köpekbaliği

Boğabaliği

Domuzbaliği

Ördekbaliği

Kedibaliği

4) *Jismlardan hayvonlarga ma'noning ko'chishi:*

Çekiçbaliği

Tırpanbaliği

Dilbaliği

Kalkanbaliği

Kılıçbaliği

Kayışbaliği

D) Aniqlashtirish /Konkretlashtirish (Somutlashtirma)

Metaforaning bu keng tarqalagan turi har bir tilda bo'lgani kabi turk tilida ham mavjud bo'lgan ma'no hodisasidir.⁴ Bunday ma'no ko'chishi turli holatlarni va his-tuyg'ularni mavhum holatda namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. Buni misollar orqali ko'rishimiz mumkin:

Turk tilida dunyoqarashini, zehniyatini tushuntirish uchun o'zagi arab tilidan olingan, o'troq, aniq ma'noga ega *“kafa” (miya)* so'zi ishlatiladi. *Bu kafa deęişmedikçe... (Bu (qovoq) kalla (miya) o'zgarmaguncha...), Ne kafa bu! (Qanaqa kalla bu!)* kabi ifodalarda bu tendensiya (moyillik) ko'rinib turadi. Ayni paytda farosat va anglash iqtidorini belgilashda *kafalı (kallali (miyasi ishlaydigan-aqli)), kafasız (kallasiz (miyasi ishlamaydigan-axmoq))* kabi yasama so'zlardan

⁴Хозирда биз қўллаётган “Somutlashtirma” атамаси кенг тарқалган. Қаранг: Aksan, 1971: 127, 153-155; 1982: 187-188; 1987: 90ss: 1993: 139-141.

foydalanilar ekan, qarashlari bir-biriga yaqin bo'lgan kishilar uchun *kafa dengi (hamfikir)* iborasiga murojaat qilinadi. *İğne (igna), iğnelemek (sanchmoq, zaharxanda gap aytmoq), taş taşlama (tosh otmoq)* kabi so'zlarning ko'chma ma'nolariga qarasaq mavhum tushunchalarni aniq ko'rsatkichlar bilan tilda ifodalanishini ko'ramiz.

Turkchadagi *sıkmak, sıkılmak, ezilmek* kabi bir qancha so'zlar yangi ma'no hosil qilyapti. Asl ma'nosi "*biror narsani atrofini o'rab, bosim ostiga olmoq*" hisoblangan "*sıkmak*" so'zi "*biror insonga ozor bermoq*" ma'nosida ham qo'llaniladi. *Sıkılmak* so'zida ham huddi shunday holat kuzatiladi.

Konkretlashtirishning eng keng ko'lamda ko'rilgan til elementlari-iboralardir. Biron vaziyatni, voqeani, harakatni til orqali ifodalashda birdan ortiq ko'rsatikichlarni bir joyga to'plash yo'li bilan paydo bo'lgan iboralarda, mavhum narsalarni anglatishda konkretlashtirishga murojaat qilinib, juda jonli, ta'sirli ifoda qilish amalga oshiriladi. Masalan, turkchadagi *baltayı taşa vurmak (o'rinsiz gapirmoq), ipin ucunu kaçırılmak (boy berib qo'yish, vaziyatni qo'ldan chiqarish), kendi yağıyla kavrulılmak (o'z yog'iga qovrulish), kabına sığamılmak (his-iuyg'ularning to'lib-toshishi), tavşana kaç, tazıya tut demek (gij-gijlamoq qo'ymoq), kaş yapayım derken göz çıkılmak (qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq), ata et, ite ot vermek (otga-go't, itga-o't bermoq, ya'ni noo'rin ish qilmoq), diken üstünde oturılmak (tikon ustida o'tirish), iğneyle kuyu kazılmak (igna bilan quduq qazish), taş gedığıne koymak (joyini topib o'rinli gapirish)...*

Ye) Hissiyotlar orasida ma'noning ko'chishi (Duyular Arasında Aktarma)

Metaforaning bu xili turli xil xissiyotlar soxasiga oid tushunchalarni bir yerga jamlab jonli bir ma'no hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Ibora ko'chishlarining bu turida farqli tuyg'u zonalariga (soha) oid tushunchalarni bir joyga to'plash orqali jonli ifoda qilishni ta'minlashhaqida so'z boradi. Sezish tuyg'usi bilan bog'liq bo'lgan *sıcak (issiq)* sifatining *sıcak bir ses (qadrdon ovoz)* kabi sezish, *sıcak bir bakış (chiroyli qarash), sıcak renkler (ko'zni quvontiradigan ranglar)* kabi ko'rish tuyg'usi bilan bog'liq otlarni ta'riflashi, ovoz

uchun *soğuk bir ses (yoqimsiz ovoz), tatli bir ses (yoqimli ovoz)* kabi soʻz birikmalarini qoʻllanishi, ranglarni ifodalashda *çığ renkler (koʻzga yoqmaydigan ranglar)*, hidlar uchun *keskin (oʻtkir)* sifatini qoʻllash bu tendensiya (moyillik)ning koʻrinishlaridan hisoblanadi. Bu maʼno koʻchishlarning bir qismi, deyarli har tilda oʻzini namoyon qiladi. *Tatli sözler (shirin soʻzlar)* shaklidagi turkchada mavjud ifodaga bir necha tilda duch kelamiz: masalan, ruscha */sladkie rechi/* kabi.

Metafora yoʻli bilan maʼno koʻchishining oʻziga xos turi sanalgan jonlantirishga maxsus lugʻatlarda quyidagicha taʼrif beriladi: “Jonlantirish yaʼni, tashxis – badiiy tasvir usullaridan biri boʻlib, jonsiz yoki mavhum narsalarda insonga xos xususiyatlarni koʻrsatish, yaʼni jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, soʻzlaydigan qilib tasvirlashdir”⁵.

Ushbu mavzuni ochib berishda S. Hamidovanning “Yosh tarjimashunos”⁶ ilmiy toʻplamidagi maqolasidan foydalanildi. Mazkur maqolaga taniqli oʻzbek adibi O. Yoqubovning “Adolat manzili” [7] romani va uning turk tiliga tarjimasi (“Adalet Menzili”–[8]) asosiy material sifatida olindi. Maqolada “Adolat manzili”da eng koʻp qoʻllanilgan badiiy sanʼatlardan jonlantirish va metaforik oʻxshatishlar haqida soʻz yuritiladi.

Adib “Adolat manzili”da bir oʻrinda kishilarning ohu-nolalarini ‘eru koʻkning faryodi’ga aylantirib, taʼsirni kuchaytiradi. Insonga xos boʻlgan faryod chekish holati yeru koʻkka koʻchadi va taʼsir kuchayib, ifodaning badiiyligi ham oshadi: “*Bir zum unga shunday tuyuldiki, goʻyo butun el, yeru koʻk, butun “Marjontov” faryod chekardi*” [7,88]. Gapning ‘eru koʻk faryod chekardi’ qismida jonlantirish usuli qoʻllanilgan. Chunki insonga xos ‘faryod chekish’ holati ‘eru koʻk’ga koʻchgan. Gapda jonlantirish bilan birga metonimiya usuli ham qoʻllanilgan (“Marjontov” deganda oʻsha qishloq aholisi koʻzda tutilgan). Mazkur jumla romanning turkcha tarjimasida quyidagicha berilgan: “*Bir an sanki bütün yurt, yer*

⁵ Хотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати, – Т.: “Ўқитувчи”, 1983, – 353 б.

⁶ Hamidova S., Yosh tarjimashunos, – Т., 2015, – 52 б.

ve gök, bütün Mercantav'luların feryat ettiği düşünçesine kapıldı" [8,107]. Tarjimada o'zbekcha jumladagi fikr juda bejirim, asliyatga mos mazmun va shaklda bera olingan.

Shuningdek, "Xitoblari yeru ko 'kni tutdi" gapida adib 'egalladi' ma'nosidagi 'tutdi' fe'lini qo'llagan holda, baland ovozda xitob qilingani, nidolar hatto osmongacha yetib borganini jonlantirib tasvirlagan: "Nidalaru semayu tuttu" [8,121].

O'zbek va turk tillarida hayvonot dunyosi, jonivorlarning yashash instinkti, hatti-harakatlariga asoslangan iboralar juda ko'p. Masalan, qishloq joylarida ilonlar ayvon shiftiga uya qo'ygan chumchuq uyasidagi poloponlarga ishqiboz bo'ladi. Ana shu holat ba'zi o'xshatish shaklidagi o'zbekcha iboralarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan: «Qamalgan, qamalmasa... qizalog'i Marjonoy uyasiga ilon tushgan chumchuqday chirqirayma?» [7,6]. Tarjimasi: 'Hapsedildi? Hapsedilmese kizcağızi Mercanay yuvasına yılan düşen serçe kuşu gibi kendini paralar mıydı?' [8,6]. Jumladagi 'uyasiga ilon tushgan chumchuqday chirqiramoq' iborasi turk tilida 'yuvasına yılan düşen serçe kuşu gibi' deb ishonchli berilgan.⁷

Metonimiya – (yunoncha «qayta nomlash») o'xshashsiz ko'chim. Metonimiya narsa, belgi yoki harakatni o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi bo'lgan narsa, belgi yoki harakatga ko'chirish demakdir. Turk tilshunosligida metonimiya *igretileme* deyiladi. Metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishi hodisasiga *mecaz* ham deyiladi. Narsa yoki hodisalarning makon yoki zamon ichida o'zaro bog'lanishi asosida ma'no ko'chishida ular orasida tashqi va ichki o'xshashlik bo'lmaydi. Oradagi doimiy bog'liqlikning mavjudligi ma'no ko'chishiga olib keladi. Masalan, turk tilida *kahve (kofe) "choyxona"* bo'ladi. Yoki *kağıt* deyilganda "qog'oz" bilan birga "hujjat" ham nazarda tutiladi. *Mutfaktan başım çıkmıyor* deganda "Uy yumushlaridan qo'li bo'shamaslik" anglashiladi. Bu jumladagi *mutfak* asli "oshxona" ma'nosida qo'llangan.⁸

⁸ Хамидов Х.Х., Риҳсиева Г., Турк тили. Ўқув қўлланма. – Т., 2013, – 42 б.

Sinekdoxa – (yunoncha synecdoche – birga nazarda tutmoq). Bir predmet nomining boshqa predmetga butun va qism munosabati asosida ko`chishi, butunning nomi qismning nomi va aksincha bo`lib qolishi. Masalan, olma: 1) mevaning bir turi va 2) shu mevaning daraxti; yoki Besh qo`l baravar emas jumlasida qo`l so`zi “barmoq” ma`nosidadir.⁹

Turkcha misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

On elinde on marifet (On qo`lida o`nta hunari bor) iborasidagi *el (qo`l)* so`zi *parmak (barmoq)* ma`nosini bildirgan (*on parmağında on marifet – o`n barmog`ida o`nta hunari bor*).

Sinekdoxa yo`li bilan ma`no ko`chishining asosiy ko`rinishlari quyidagilardir:

1. Kishining nomini uning tashqi ko`rinishidagi belgi bilan aytish: *beyaz saçlı (oqsoch), beyaz sakallı; aksakallı (oqsoqol), kelle (kalla), burun (burun)* kabi.
2. Hayvonni uning biror a`zosi bilan atash: *ayak (tuyoq), baş (bosh), boynuz (shox)* kabi.
3. Meva nomi bilan shu mevani beradigan daraxtni atash: *elma (olma, olma daraxti), kiraz (gilos, gilos daraxti)* kabi.¹⁰

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] –Хамидов Х., Риҳсиева Г., Турк тили. Ўқув қўлланма. – Т., 2013.
- [2] – Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати, – Т.: “Ўқитувчи”, 1983.
- [3] – Намидова С., Yosh tarjimashunos, – Т., 2015.
- [4] – Ҳожиёв А., Тилшунослик терминлари изоҳли луғати. – Т., 2002.

⁹ Ҳожиёв А., Тилшунослик терминлари изоҳли луғати. – Т., 2002, – 88 б.

¹⁰ Хамидов Х., Риҳсиева Г., Турк тили. Ўқув қўлланма. – Т., 2013, – 43-44 б.